

QARSHI DAVLAT  
UNIVERSITETI

# ANALIZNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

2023  
2-3 Iyun

Qarshi shahri  
2023-yil

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI  
ILMIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**ANALIZNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

**Respublika ilmiy anjumani materiallari**

**2-3 iyun 2023-yil**

**СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ АНАЛИЗА**

**Материалы республиканской научной  
конференции**

**2-3 июнь 2023 года**

**June 2-3, 2023.**

**MODERN PROBLEMS OF ANALYSIS**

**Materials of the republican scientific conference**

**Qarshi-2023**

	<b>Кузиев Ш.С.</b>	квадратурной формулы в пространстве $L_2^{(3)}(0,1)$	
151.	<b>Qurbonnazarov A.I.</b>	<u>Furye integralini</u> taqribiy hisoblash uchun optimal kvadratur formula	309
152.	<b>Raufov R.U.</b>	Algebra masalalarini hal qilishni Python dasturida modellashtirish	311
153.	<b>Raufov R.U.</b>	Aniq integralni taqribiy hisoblash usullarini Python dasturida modellashtirish	314
154.	<b>Xaitov T.O.</b>	$K_2^{2,0}$ fazosida optimal kvadratur formulalar	317
155.	<b>Xoshimova D.K., Yusupova M.A.</b>	Ко'п о'zgaruvchili funksiyaning yo'nalish bo'yicha hosilasining fizik va geometrik ma'nosi	319
156.	<b>Амирова Д.А.</b>	Примитивно рекурсивные функции	321
157.	<b>Имомназаров Х.Х.</b>	Замкнутое моделирование динамики сжимаемых двухфазных сред	323
158.	<b>Муминов Б.Б., Норкулова З.Н.</b>	Виды и методы визуализации данных посредством 3d-моделирования с помощью искусственного интеллекта	324
159.	<b>Каюмов Ш., Бекчанов Ш.Э., Зиёдуллаева Ш.</b>	О фильтрации структурированных флюидов в гидродинамически связанных многослойных пластах	326
160.	<b>Худойбердиева Ш., Тошпўлатов М.</b>	Назорат карталар ёрдамида технологик операциялардаги ўртача йўқотишларни баҳолаш ҳақида	328
<b>6-SHO'BA. МАТЕМАТИКА O'QITISH METODIKASI</b>			<b>330</b>
161.	<b>Abdiraxmanov A., To'rayeva F.</b>	Matematika kursida matematik tushuncha, va uning mantiqiy tuzilishi	330
162.	<b>Abdiyeva Sh.</b>	Kub tenglama ildizlarining joylashish masalasini kub funksiya grafigi yordamida o'rganish	332
163.	<b>Abdurazakov A., Qodirov A.I.</b>	Dispersion tahlil masalasini yechishda mathcad dastur tizimini qo'llash asosida ta'lim sifatini oshirish.	334
164.	<b>Arziqulov A.U., Janiqulov Q.K.</b>	Modulli tenglamalarni yechish orqali o'quvchilarda tadqiqotchilikni shakllantirish	337
165.	<b>Бегимова Г.Н.</b>	Қобилиятли ўқувчилар билан ишлаганда бошланғич функция, аниқмас интеграл ва уни ҳисоблаш мавзусини тушунтириш.	339
166.	<b>Boboyeva M.N.</b>	Yoshlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish holati tahlili	343
167.	<b>Dadamirzayeva O.</b>	Binomial alomatiga asoslangan nazorat	344

## YOSHLARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH HOLATI TAHLILI

**Boboyeva M.N.**

[m.n.boboeva@buxdu.uz](mailto:m.n.boboeva@buxdu.uz)

Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada yoshlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning mavjud holati, o'rganilganlik darajasi haqida fikr yuritiladi.*

Davlatimizda iqtidorli yoshlarga e'tibor ta'lim sohasidagi davlat siyosati darajasida ekanligi bejiz emas. Chunki, mazkur pedagogik muammo dunyoning turli mamalkatlarida mazkur masalani tadqiq etishga, iqtidorli yoshlarni tanlash, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga doir o'ziga xos tajriba to'planganligini alohida qayd etib o'tish o'rinlidir. [1].

XX asr boshlarida Amerikada pedagogik-psixologik adabiyotlarda odatdagi tarbiyalanuvchilardan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladigan bolalar turli nomlar bilan atalgan. Psixologiya fanlari doktori G.Uilli yuksak qobiliyatlarga ega bolalar uchun "iqtidorli bolalar" atamasini qo'llashni taklif etgan.

Adabiyotlar tahlili Amerikada iqtidorli bolalarni yuqori intellekt va a'lo darajada o'zlashtiruvchilar deb hisoblashganligini ko'rsatadi.

Yevropa davlatlaridan biri – Germaniyada ham iqtidorli yoshlar bilan ishlashda o'ziga xos tajriba to'plangan. Germaniyada iqtidorli yoshlarni aniqlash maxsus metodikalar yordamida 10-12 yoshda amalga oshiriladi. Mazkur davlatda iqtidorli yoshlar uchun alohida ixtisoslashtirilgan gimnaziyalarni tashkil etishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Berlindagi "Anna-Lindh-Schule"da 80 nafar "Yevropa iqtisodining kelajagi" tahsil oladi. [2].

Buyuk Britaniyada ham iqtidorli yoshlar bilan ishlashga doir katta amaliy tajriba to'plangan. Mazkur jarayonga Buyuk Britaniya ta'lim vazirligi, ko'plab universitetlar, kollejlilar va jamoatchilik tashkilotlari faol ishtirok etishadi.

Angliya pedagogikasida ijodiy iqtidorlilikka alohida e'tibor qaratiladi. Britaniyalik mutaxassislarining fikricha, "ijod (kreativlik) – iqtidorlilikning eng muhim unsuri hisoblanadi va iqtidorlilikning barcha turlari ijodiy komponentdan alohida qaralishi mumkin emas" [3].

Xitoyda iqtidorli yoshlar qoidaga muvofiq ta'limning keyingi bosqichlarini davom ettirishda turli imtiyozlar – davlat stipendiyalari, ishlab chiqarish korxonlari va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan yordam pullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Xitoyda iqtidorli yoshlar uchun maxsus maktablar mavjud emas, biroq universitetlar qoshida ochilgan o'rta maktablarning imkoniyalaridan samarali foydalaniladi. Har bir universitet qoshida kadrlar va yuqori darajada ta'lim berishni ta'minlaydigan maktablar mavjud. [2].

Koreya Respublikasida ham iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Iqtidorli yoshlar bilan ishlashning asosiy yo'nalishi sifatida maxsus maktablarni yaratish va qo'shimcha ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillardan shularni e'tirof etish mumkinki, mamlakatimizdagi iqtidorli yoshlarning intellektual imkoniyatlarini rivojlangan davlatlar tajribalariga

tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga mustahkam zamin yaratadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kjangimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.
2. – Красноярск: ККИПКППРО, 2011. – С. 6, 12.
3. Рахматова Ф. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлаш технологиясини такомиллаштириш. Пед.фан.б/ча (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. СамДУ 2020 й. 170 б.

## **BINOMIAL ALOMATIGA ASOSLANGAN NAZORAT KARTALAR BILAN PSIXOLOGIK TAJRIBALARNI STATISTIK TAHLIL QILISH HAQIDA**

**Dadamirzayeva O.**

[odinal1dadamirzayeva@gmail.com](mailto:odinal1dadamirzayeva@gmail.com)

Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisdagi psixologik obyektlar yoki belgilar nominal yoki tartib shkalalarda o'lchangan holda ishlatiladigan binomial alomatga asoslangan nazorat kartalarning asosiy xarakteristikalarini aniqlangan.*

Ma'lumki psixologik tajribalarda shaxs xislati, emotsiyasi, individual xususiyati, diqqat, xotira, idrok kabi bilish jarayonlari tadqiq qilinadi. Psixologik tajribalarni o'tkazish davomida tajriba o'tkazuvchi statistik metodlar bilan ba'zi gipotezalarni tekshirishga to'g'ri keladi [1].

Agar  $n$  ta erkli tajribada hodisa  $m$  marta ro'y bersa  $\frac{m}{n}$  nisbiy chastota  $p_0$  ehtimolni bahosi sifatida olinadi.

Psixologik tajribalarda quyidagi gipotezalar olg'a suriladi

$$H_0: p = p_0 \quad p_0 \in (0,1)$$

$$H_1: p > p_0$$

Odatda bu gipotezalar  $\alpha$  qiymatdorlik darajasi quyidagi qoidalar bilan tekshiriladi [2].

a)  $n < 30$  bo'lsin.  $S = m$  ta tajribada hodisaning ro'y berishlar soni kriteriy sifatida olinadi. Berilgan  $p_0, n, \alpha$  bo'yicha Binomial taqsimot jadvalidan  $S_{kr}$  aniqlaymiz.

Agar  $S_{kuz} < S_{kr}$  bo'lsa,  $H_0$  gipoteza  $\alpha$  qiymatdorlik darajasida qabul qilinadi, aks holda rad etiladi va  $H_1$  gipoteza qabul qilinadi.

Nazorat kartalar metodiga asosan muammoni hal qilish uchun tajribaning sifat ko'rsatkichi bilan bog'liq  $g = S$  nazorat kartani nazorat qiluvchi miqdori va uni yuqori chegarasi ( $UCL_g$ ) ni aniqlash zarur bo'ladi [3].

Yuqori nazorat chegara uchun quyidagi tasdiq o'rinli bo'ladi: